

**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI  
FAOLIYATIDA SIYOSIY PARTIYA GURUHLARI  
ISHTIROKINING SHAKL VA USULLARI**

*Aliqulov Komiljon Urol o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi*

*Huquq fani o'qituvchisi*

*94-462-57-73*

*komilaliqulov93@gmail.com*

**Annatsiya.** siyosiy partiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqib, uning ommaviy faoliyatini bir-birini doimiy ravishda to'ldiradigan ikki yo'nalishdan iborat jarayon sifatida tavsiflash.

**Kalit so'zlar.** Mahalliy davlat hokimiyati, xalq deputatlari Kengashi, Siyosiy partiyalar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 24-moddasida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining asosiy vakolatlari belgilangan. Shuningdek, mazkur Qonunning 2-moddasida mamlakatimizda ko'ppartiyaviylikni shakllantirish, xususan, siyosiy partiyalarni mahalliy Kengashlardagi ishtiroki yo'nalishlariga oid muhim qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, qayd etib o'tilgan normada viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etilishi, agar ovoz berish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega ekanligi haqidagi muhim qoida o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>.

A.Yangibaevning ta'kidlashicha, siyosiy partiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqib, uning ommaviy faoliyatini bir-birini doimiy ravishda to'ldiradigan ikki yo'nalishdan iborat jarayon sifatida tavsiflash mumkin deb hisoblaydi. Uning fikricha, birinchi yo'nalish partiyaning davlat hokimiyatini egallashga qaratilgan bo'ladi. Davlat hokimiyati organlarida o'z vakilligini ta'minlash yoki saqlab qolish va kengaytirishni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993. -№ 9. 320-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – [www.lex.uz](http://www.lex.uz), 09.01.2019 y., 03/19/512/2435-son.

o‘z ichiga oladigan ommaviy faoliyat bo‘lib, mazkur faoliyat yo‘nalishi saylov kampaniyalarini o‘tkazish davrlarida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi yo‘nalish partiyaning davlat hokimiyati organlari tarkibidagi vakillari faoliyati bo‘lib, uning natijalari vakillik organi ishida namoyon bo‘ladi<sup>2</sup>.

S.Berdikulovning ta’kidlashicha, partiya guruhleri, xususan, deputatlar xalq deputatlari Kengashlaridagi ishtiroki bilan bog‘liq o‘z faoliyatlarini puxta rejalashtirishlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning fikricha, deputat o‘z faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishi mumkin: xalq deputatlari Kengashining sessiyalarida, shu jumladan ko‘rilayotgan masalalar bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etish; xalq deputatlari Kengashining o‘zi a‘zo bo‘lgan doimiy komissiyalarida ishlash; xalq deputatlari Kengashida tashkil etilgan partiya guruhida ishlash; deputatlarning saylovchilar bilan, uni xalq deputatlari Kengashi deputatligiga nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya bilan ishlashi. Albatta, bunda deputat yuzaga kelayotgan turli muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha o‘z taklif va mulohazalariga ega bo‘lishi kerak. Ushbu vazifalarni bajarish uchun deputat o‘ziga berilgan vakolatlardan foydalana olishi, o‘zi mansub partiya mafkurasidan kelib chiqib elektorat manfaatini ifodalaydigan qarorlarni taklif etishi, o‘zi saylangan hududdagi muammolar hamda ularning yechimini ko‘rsata olishi kerak<sup>3</sup>.

A.Nikolaev siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy shakli sifatida ularning saylov jarayonidagi ishtiroki, ya’ni davlat hokimiyati organlarini shakllantirishdagi faoliyatini ko‘rsatib o‘tadi<sup>4</sup>.

X.Ruzmetovning qonunchilik tartibida mahalliy miqyosdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy sheriklik munosabatlariga asoslangan tashkiliy-huquqiy shakllarni mustahkamlab qo‘yish haqidagi mulohazasini e’tiborga loyiq deb hisoblaymiz. Olimning fikricha, bunday shakllardan biri sifatida viloyat, tuman, shahar mahalliy davlat hokimiyati organlari huzurida ijtimoiy sheriklikka oid jamoat komissiyalarini ko‘rish mumkin. Bunday jamoat komissiyalarini tuzishdan maqsad tegishli hududda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish hamda joylardagi ijro hokimiyati faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish hisoblanadi. Shuningdek, olim ushbu tuziladigan komissiya tarkibiga fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bir qatorda, avvalo, siyosiy partiyalarning vakillarini kiritish lozim deb hisoblaydi<sup>5</sup>.

<sup>2</sup> Yangibaev A.K. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi. // Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. –T., 2019. – B.16.

<sup>3</sup> Berdikulov S.N. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik milliy modelini rivojlantirish istiqbollari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – B.79.

<sup>4</sup> Nikolaev A. Konstitutsionno-pravovye osnovy uchastiya politicheskix partiy v formirovaniy organov gosudarstvennoy vlasti v Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. dis. ... kand. jurid. nauk. – Tyumen, 2007. – 22 s.

<sup>5</sup> Ruzmetov X.I. O‘zbekistonda mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Yurid. fan. dokt. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2010. – 40 b.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiya guruhlari ishtirokining shakl va usullari yuzasidan milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatayotgani, olimlar partiyalar faoliyatini muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rsatib o‘tgan. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiya guruhlari ishtiroki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy hayotning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Tegishli qonunchilikda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiya guruhlari ishtirokining shakl va usullari alohida normalarda mustahkamlab qo‘yilmagan bo‘lsa-da, qonunchilikning mazmunini tahlil qilish asnosida ularda ushbu masalalar o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning qator moddalarida xalq deputatlari Kengashining, deputatlarning vakolatlari belgilab qo‘yilgan. Agar Kengashlar tarkibi saylovlarda g‘olib chiqqan muayyan partiyalar vakillari ekanligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak va ular kengashlarda deputatlik guruhlarining a‘zolari ekanligini nazarda tutsak, tegishli vakolatlarning partiya guruhlariga ham taalluqli ekanligini qayd etish mumkin. Qonunning 25<sup>1</sup>-moddasida hokimning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini xalq deputatlari Kengashi tomonidan eshitish bilan bog‘liq normalar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, tuman va shahar hokimining hisobotini muhokama qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining majlislarida berilgan baholar va belgilangan vazifalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini muhokama qilish yakunlari bo‘yicha tegishli xalq deputatlari Kengashining qarori qabul qilinib, unda tegishli hokim va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari ishining samaradorligiga kompleks baho beriladi, ularning ishini takomillashtirishga doir tavsiyalar va takliflar, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalarining (bo‘limlarining) boshliqlari har chorakda va ularning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari – huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘limlari (bo‘linmalari) boshliqlari har oyda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risida hisobotlar taqdim etadi. Yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va ishlarning natijalari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish chog‘ida tanqidiy jihatdan muhokama qilinadi, ularning faoliyati samaradorligiga shaxsan baho beriladi, shuningdek egallab turgan lavozimiga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risida tavsiyalar qabul qilinadi.

Siyosiy partiya guruhlari mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida muayyan shakl va usullar yordamida ishtirok etadilar. O‘z-o‘zidan partiya guruhi a‘zolari mahalliy Kengashlar tarkibida qancha ko‘pchilikni tashkil qilsa,

saylovchilarning xohish-istaklarini amalga oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga shunchalik ega bo‘ladi. Qonunchilikka ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesinde, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarida muayyan partiyadan saylangan kamida uch nafar deputat bo‘lsa, partiya guruhi tashkil qilinadi. Kengashlar faoliyatida partiya guruhlari, avvalo, ularni saylagan saylovchilar manfaatiga mos keladigan, muayyan hudud uchun dolzarb ahamiyat kasb etayotgan masalalar yechimiga qaratilgan qarorlar loyihalarini kun tartibiga kiritishlari hamda ularning ijrosi ustidan samarali deputatlik nazoratini o‘rnatishlari talab etiladi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev o‘rinli ta’kidlaganidek, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatida siyosiy partiyalar guruhlarning rolini kuchaytirish, ayniqsa, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi vakolatlarini kengaytirish masalasi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>6</sup>.

Biz yuqorida siyosiy partiya guruhlarning mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridagi ishtirokining shakl va usullarini O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni asosida tahlil qildik. Ayni paytda siyosiy partiya guruhlarning mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridagi ishtirokining huquqiy asoslari yana bir muhim hujjat “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunda ham mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, ushbu Qonunning 14<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra partiya guruhlari: davlat hokimiyatining tegishli vakillik organi sessiyasi kun tartibini shakllantirishda ishtirok etish; davlat hokimiyatining tegishli vakillik organi qo‘mitalari yoki komissiyalari raisligiga, rais o‘rinbosarligiga va a‘zoliciga nomzodlar yuzasidan takliflar kiritish; davlat hokimiyatining tegishli vakillik organi sessiyasi kun tartibidagi har bir masala bo‘yicha muzokaralarda partiya guruhi vakiliga so‘z berilishini kafolatlash; tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining va Vazirlar Kengashining raislariga, vazirlariga hamda boshqa davlat organlari rahbarlariga, hokimlarga, hokim o‘rinbosarlariga, hokimliklar boshqarmalari, bo‘limlari va boshqa bo‘linmalarining rahbarlariga, shuningdek tegishli xalq deputatlari Kengashi hududida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlariga so‘rov bilan murojaat qilish; hududlarni rivojlantirish dasturlarining loyihalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlari viloyat hamda Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish kabi bir qator huquqlarga ega.

Siyosiy partiya guruhlarning mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridagi ishtirokining shakl va usullariga oid qonunchilik normalarini tahlil qilar ekanmiz,

---

<sup>6</sup> <http://uzlidep.uz/uzc/news/uzbekiston> respublikasi prezidentligiga nomzod shavkat miromonovich mirziyoevning dasturi

ularda huquq va vakolatlarning keng doirasi mustahkamlab qo‘yilganligining guvohi bo‘lamiz. Lekin huquqiy amaliyotni o‘rganadigan bo‘lsak, partiya guruhlarini ushbu vakolatlardan samarali foydalanyapti deya olmaymiz.

Amaliyotdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi hamda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunlarni yangi tahrirda qabul qilish va ularda partiya guruhlarining faoliyati shakl va uslublarini amalga oshirishning barcha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini o‘z ichiga qamrab olgan normalarni mustahkamlash lozim. Shuningdek, mahalliy kengashlardagi deputatlarning siyosiy va huquqiy ongini oshirishga hamda ularning partiya oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash maqsadga muvofiq. Bunda deputatlarni o‘qitish, ular uchun uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish, seminar-treninglar o‘tkazish va tajriba almashishlarni yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy Kengashlarda partiya guruhlarini ishtirokini samarali yo‘lga qo‘yishga qaratilgan to‘laqonli tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993. -№ 9. 320-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – [www.lex.uz](http://www.lex.uz), 09.01.2019 y., 03/19/512/2435-son.
2. Yangibaev A.K. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi. // Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. –T., 2019. – B.16.
3. Berdikulov S.N. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik milliy modelini rivojlantirish istiqbollari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – B.79.
4. Nikolaev A. Konstitutsionno-pravovye osnovy uchastiya politicheskix partiy v formirovaniy organov gosudarstvennoy vlasti v Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – Tyumen, 2007. – 22 s.
5. Ruzmetov X.I. O‘zbekistonda mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Yurid. fan. dokt. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2010. – 40 b.
6. <http://uzlidep.uz/uzc/news/uzbekiston-respublikasi-prezidentligiga-nomzod-shavkat-miromonovich-mirziyoevning-dasturi>